

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Xidirova M.Q.,

Guliston davlat pedagogika instituti
dotsenti v.b. xidirovamalohat848@gmail.com,

Raxmonqulova D.D.,

Mirzaobod tumani 22-maktab direktori

Annotatsiya: mazkur tezisdagi ta'lim tashkilotlarida rahbarlik kompetensiyalarining shakllanish jarayoni, unga ta'sir etuvchi asosiy omillar va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. O'z-o'zini rivojlantirish, tashkiliy madaniyat, kasbiy o'sish va innovatsion texnologiyalar rahbar kompetensiyalarini shakllantirishdagi asosiy drayverlar sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tashkiloti, rahbarlik kompetensiyalari, kasbiy rivojlanish, strategik boshqaruv, shaxsiy rivojlanish, innovatsion yondashuv, menejment, ta'lim sifati.

Аннотация: в данном тезисе проанализированы процесс формирования лидерских компетенций в образовательных организациях, основные факторы, влияющие на него, и значение современных подходов. Самосовершенствование, организационная культура, профессиональный рост и инновационные технологии рассматривались как основные движущие силы в формировании компетенций руководителя

Ключевые слова: образовательная организация, лидерские компетенции, профессиональное развитие, стратегическое управление, личностное развитие, инновационный подход, менеджмент, качество образования.

Abstract. this thesis analyzes the process of formation of leadership competencies in educational organizations, the main factors influencing it, and the importance of modern approaches. Self-development, organizational culture, professional growth, and innovative technologies are considered as the main drivers in the formation of leadership competencies.

Keywords: educational organization, leadership competencies, professional development, strategic management, personal development, innovative approach, management, quality of education.

Ta'lim tizimi global o'zgarishlar fonida yangi yondashuvlar va liderlik shakllarini talab qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim tashkilotlari nafaqat ta'lim mazmuni, balki boshqaruv uslublari bilan ham zamon bilan hamnafas bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ta'lim islohotlarining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Zamonaviy rahbar o'z kasbiy faoliyatida strategik fikrlash, innovatsion yondashuv, samarali muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Rahbarlik kompetensiyalari — rahbarning ta'lim tashkilotini samarali boshqarish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va jamoani birlashtirish uchun zarur bo'lgan kompleks shaxsiy va kasbiy ko'nikmalar to'plamidir. Ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

- strategik fikrlash va rejalashtirish qobiliyati;
- innovatsiyalarni joriy etish va moslashuvchanlik;
- tashkiliy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish;
- jamoani boshqarish va samarali muloqot o'rnatish;
- shaxsiy va professional rivojlanishga doimiy intilish.

Bu kompetensiyalar ta'lim tashkilotining barqaror rivojlanishiga va raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratishga zamin yaratadi.

Rahbarlik kompetensiyalarining rivojlanishida **shaxsiy omillar** muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki har qanday rahbar o'zining ichki motivatsiyasi, shaxsiy fazilatlari va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi orqali yetakchilik qobiliyatini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Quyida shaxsiy omillar kengroq yoritib beramiz:

1. Ichki motivatsiya va tashabbuskorlik

Rahbarning o'z faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi va tashabbus ko'rsatish qobiliyati uning kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy omildir. O'z-o'zini rag'batlantira oladigan rahbar tashabbuskor, yangiliklarga ochiq va mas'uliyatli bo'ladi. Bunda ishga ishtiyoq va fidoyilik, faoliyatda yangilik izlashga tayyorlik, vazifalarni ijodkorlik bilan bajarish kabi muhim jihatlar mavjud.

2. O'z-o'zini anglash va refleksiya

Rahbarning o'z kuchli va zaif tomonlarini bilishi, o'z faoliyatini ob'ektiv baholay olishi shaxsiy va kasbiy rivojlanishning poydevoridir. Refleksiya orqali rahbar o'z xatolaridan saboq oladi va o'z ustida muntazam ishlaydi. Bu omilning muhim jihatlarini sifatida o'zini baholash va rivojlantirishga ochiqlik, tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zgarishlarga moslashuvchanlikni ko'rishimiz mumkin.

3. Emotsional intellekt.

Rahbarning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalar his-tuyg'ularini anglash va ularga mos ravishda harakat qilish qobiliyati — kuchli liderlik belgilaridan biridir. Emotsional intellekt kuchli bo'lgan rahbarlar jamoa ichida sog'lom psixologik muhit yaratadilar. Ya'ni, stressni boshqarish, konfliktlarni ijobiy hal qilish kabi vazifalarni osonlik bilan hal qiladi.

4. Shaxsiy mas'uliyat va intizom

Tashkilot rahbari o'zining harakatlari va qarorlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Shaxsiy intizom va va'dalarga sodiqlik rahbarlik kompetensiyasining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanib, vaqtni to'g'ri boshqarish, majburiyatlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, muammolarni kechiktirmasdan hal qilish lozim.

5. O'z ustida ishlash va doimiy o'rganish istagi

Tez o'zgarayotgan zamonaviy sharoitda rahbar doimo o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi zarur. Yangi bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish, professional rivojlanish rejasini tuzish va unga amal qilish, tajriba almashishga tayyorlik rahbarlik salohiyatining doimiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Rahbarning kasbiy kompetensiyalari nafaqat uning shaxsiy fazilatlari va intilishlariga, balki u faoliyat yuritayotgan tashkilotning ichki muhitiga, **tashkiliy resurslariga va tizimli faoliyat** jarayonlariga ham bevosita bog'liqdir.

Tashkiliy va tizimli omillar rahbar kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishida zaruriy tashqi asos sifatida xizmat qiladi. Tashkilot ichida shakllangan boshqaruv madaniyati rahbarlarning kasbiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ochilgan imkoniyatlar, o'zaro hurmatga asoslangan muloqot, ochiqlik va adolat tamoyillari asosida shakllangan boshqaruv muhitida rahbarlar o'z salohiyatini erkin namoyon eta oladi. Rahbar g'oya va tashabbuslarga ochiq bo'lishi, demokratik qarorlar qabul qilish jarayonlarini to'g'ri tashkil qila olishi lozim.

Rahbarning o'z kompetensiyalarini rivojlantirishi uchun tashkilotda yetarlicha resurslar — moliyaviy, moddiy-texnik va axborot resurslari bo'lishi zarur. Resurslar mavjudligi rahbarlarga o'z faoliyatini samarali rejalashtirish va amalga oshirish imkonini beradi. Bunda ta'lim va rivojlanish uchun budget ajratilishi, axborot va texnologik infratuzilmaning rivojlanganligi, zaruriy materiallar va trening imkoniyatlari bilan ta'minlanishni yo'lga qo'yadi..

Tashkilot doirasida rahbarlar uchun maxsus professional rivojlanish dasturlari (kurslar, treninglar, seminarlar) tashkil etilishi ularning kompetensiyalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Buning ahamiyatli jihati - muntazam malaka oshirish dasturlarining mavjudligi, tajriba almashish va o'rganish uchun platformalar yaratilishi, mentorlik va kouching tizimlarining rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim tashkilotida uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining mavjudligi va unga rioya qilinishi rahbarning strategik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Aniq vazifalar va natija ko'rsatkichlarining belgilanishi, o'zaro bog'langan reja va loyihalar tizimi, doimiy monitoring va baholash jarayonlari tizimli boshqaruv rahbarlarni natijaga yo'naltiradi va ularning rejalashtirish hamda boshqarish salohiyatini oshiradi.

Tashkilotda innovatsion yangiliklarni qabul qilish va tatbiq etishga ochiqlik mavjudligi rahbarlarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash siyosati, raqamli texnologiyalarni faol joriy etish, eksperiment va tajriba qilishga imkon beradigan muhit rahbarlik salohiyatining zamon talablariga mos rivojlanishini ta'minlaydi.

Doimiy malaka oshirish, professional seminar va treninglar orqali yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish kompetensiyalar shakllanishining asosiy tashqi omilidir. Bu jarayon rahbarlarga zamonaviy boshqaruv tendensiyalarini o'z faoliyatiga tatbiq etish imkonini beradi. Rahbar kompetensiyasining **kasbiy rivojlanishi** esa nafaqat shaxsiy intilishlarga, balki tashqi omillar va tizimli sharoitlarga ham bog'liqdir.

Rahbarlarning kasbiy rivojlanishida maxsus tashkil etilgan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari muhim o'rin tutadi. Ushbu kurslar orqali ular yangi boshqaruv metodlari, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishadilar. Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, seminarlar, konferensiyalar va tajriba almashish dasturlarida ishtirok etish rahbarlarga o'z bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkonini beradi. Bunda rahbar eng yaxshi tajribalarni o'rganish, kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, professional tarmoqlarda faol ishtirok etish kabi vazifalarni hal qiladi.

Rahbarlarning ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishi va ilmiy maqolalar yozishi ularning analitik fikrlashini kuchaytiradi va kasbiy saviyasini oshiradi. U boshqaruv sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishi, metodik qo'llanmalar va amaliy tavsiyalar tayyorlashi, akademik hamjamiyat bilan faol aloqalar o'rnatishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun raqamli texnologiyalarni bilish va ularni boshqaruvda samarali qo'llay olish muhim kompetensiya hisoblanadi. Rahbar raqamli boshqaruv platformalarini o'zlashtirishi, onlayn ta'lim va raqamli monitoring tizimlarini joriy etishi, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyatni rivojlantirishi kerak. Bundan tashqari tajribali mutaxassislar tomonidan malakali xodimlarni tayyorlash va ularni faoliyat davomida qo'llab-quvvatlash uchun mentorlik va kouching tizimlarining joriy etilishi katta ahamiyatga ega.

Rahbar kompetensiyasining rivojlanishida **innovatsion omillar** ham yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular rahbarni tez o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish va ilg'or tajribalarni tatbiq etishga tayyor qiladi. Rahbar o'z faoliyatida yangiliklarga ochiq bo'lib, doimiy ravishda o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlarini anglab, ularga mos yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur. Ya'ni, an'anaviy yondashuvlardan voz kechish, o'zgarishlarni boshqarish va ular orqali rivojlanishni ta'minlash, innovatsion tashabbuslarni ilgari surish va ularni amalga oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Raqamli texnologiyalarni bilish va ulardan boshqaruvda samarali foydalanish zamonaviy rahbar uchun muhim kompetensiyadir. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi, onlayn ta'lim platformalari va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy eta olishi, ma'lumotlar tahlili va raqamli yechimlardan foydalangan holda qarorlar qabul qila olishi talab qilinadi. Shu bilan birga rahbar tashkilotda yangi loyihalarni yaratish, joriy etish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Innovatsion loyihalar tashkilotda yangiliklarni tez va sifatli tatbiq etishga xizmat qiladi. U o'z jamoasida innovatsion g'oyalarni rag'batlantirishi, o'qituvchilar va xodimlarning kreativ tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi kerak. Buning uchun ijodiy fikrlovchi xodimlar uchun imkoniyat yaratishi, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va mukofotlash tizimini joriy etishi, kichik tajriba va sinov loyihalariga sharoit yaratishi lozim.

Tashkilot ichida yangiliklarni qadrllovchi va ularni amaliyotga joriy etishga tayyor bo'lgan madaniyatni rivojlantirish rahbarning muhim vazifasidir. Rahbar faoliyati davomida xodimlariga xatolardan qo'rqmaslik va yangilik yaratishga imkon berishi, tajriba va natijalarni o'zaro baham ko'rish muhitini yaratish, ochiq fikr almashuvi va erkin muloqotni rivojlantirish uchun sharot yaratib berishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tashkilotlarida rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirish - bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Samarali rahbarlik uchun shaxsiy tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash, strategik rejalashtirish va doimiy kasbiy rivojlanish talab etiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimining muvaffaqiyati rahbarlarning o'z kompetensiyalarini muntazam ravishda rivojlantira olish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdujabborov, A. Ta'limda menejment asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2021.
2. Xolmurodov B. Ta'lim boshqaruvi asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
3. Murodova N. Zamonaviy ta'limda menejment va liderlik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Fullan M. The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. — Jossey-Bass, 2014.
5. OECD. School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2016. — OECD Publishing, 2019.
6. Robbins S.P., Coulter M. Management. — Pearson Education, 2020.
7. Qodirov, N. (2020). "Ta'lim tizimini boshqarishda liderlik tamoyillari." O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, 2020, №2, 45–50-betlar.